



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 4 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 8, НОМЕР 4

LOOK TO THE PAST
VOLUME 8, ISSUE 4



ТОШКЕНТ-2025

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
мухандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуридинович
тарих фанлари доктори, профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхураевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Boxodirov Ixtiyor TURKISTON HARBIY OKRUGINING ILI O‘LKASIDA ROSSIYA IMPERIYASI HUKMRONLIGINI O‘RNATISHGA QARATILGAN FAOLIYATI.....	5
2. Bo‘tayev Jonibek XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA TIBBIY XIZMAT HOLATI.....	10
3. Djumamurotov G‘ulom XVIII ASRNING IKKINCHI YARMI VA XIX ASR BOSHLARIDA QORAQALPOQLARNING OROL BO‘YIGA KO‘CHIB JOYLASHISHI.....	16
4. Ergasheva Xusnida NEFT SANOATINING MODDIY-TEXNIK BAZASI VA INFRASTRUKTURASINI RIVOJLANTIRISH.....	27
5. Кобзева О.П. СКАНДИНАВСКИЕ ИССЛЕДОВАТЕЛИ ШЕЛКОВОГО ПУТИ.....	34
6. Rahmatov Muhridin TATAR ZIYOLILARINING TURKISTON TA‘LIM TIZIMINI YO‘LGA QO‘YILISHIDAGI ISHTIROKI VA UNING NATIJALARI.....	40
7. Ruzikulova Maftunaxon MARKAZIY FARG‘ONA SUV XO‘JALIGINING MOLIYAVIY TA‘MINOTI VA UNDAGI MUAMMOLAR (1950-1991-yillar).....	46
8. Саттаров Акрам XIX АСР ЎРТАЛАРИДА ТУРКИСТОНДАГИ ДЕМОГРАФИК ВАЗИЯТ.....	52
9. Tishabayev Alisher O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MALAKALI SPORTCHI MUTAXASSIS KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIDAGI O‘ZGARISHLAR (1991-2019-yillar).....	58
10. Toliboyeva N.O. O‘ZBEKISTONDA MADANIY-MA‘RIFIY SOHANING YUKSALISHI.....	66
11. Хайдаров Муродилла ФРЕДЕРИК СТАРР. МАРКАЗИЙ ОСИЁНИ ҚАЙТА КАШФ ЭТИБ.....	71
12. Baxtiyor Yuldashev, Xusnida Ergasheva SOVET DAVLATI HUKMRONLIGI YILLARIDA O‘LKADA NEFT SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR CHORA-TADBIRLAR.....	81



Ixtiyor Boxodir o'g'li Boxodirov,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrası v.b. dotsenti (PhD)

TURKISTON HARBIY OKRUGINING ILI O'LKASIDA ROSSIYA IMPERIYASI HUKMRONLIGINI O'RNATISHGA QARATILGAN FAOLIYATI

For citation: Ixtiyor B.Boxodirov. THE ACTIVITIES OF THE TURKESTAN MILITARY DISTRICT AIMED AT ESTABLISHING THE RULE OF THE RUSSIAN EMPIRE IN THE ILI REGION. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 4, pp.5-9

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15380638>

ANNOTATSIYA

Turkiston general-gubernatorligi XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida turli yillarda sharqda - Kulja (Ili) sultonligi, Yettishahar amirligi, Sin imperiyasi, Xitoy respublikasi, janubda – Afg'oniston amirligi, janubiy-g'arbda Eron (Fors shohligi) bilan chegaradosh bo'lgan. General-gubernatorlik bu davlatlar bilan O'rta Osiyoning turli hududlari uchun doimo harbiy va siyosiy jihatdan o'zaro raqobatda bo'lgan va o'z chegaralarini qo'riqlashga jiddiy e'tibor bergan. Maqolada Turkiston harbiy okrugi Ili o'lkasidahi harbiy siyosiy jarayonlardagi ishtiroki yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: habiy okrug, vzvod, rota, batalyon, yuzlik, general, bo'lim, artilleriya, kazak.

Ихтиёр Боходиров,

Кафедра “Общественных наук” Ташкентского
государственного экономического университета.
Доктор философии (PhD) по историческим наукам.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТУРКЕСТАНСКОГО ВОЕННОГО ОКРУГА, НАПРАВЛЕННАЯ НА УСТАНОВЛЕНИЕ ГОСПОДСТВА РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ИЛИЙСКОМ КРАЕ

АННОТАЦИЯ

Во второй половине 19 века - начале 20 века Туркестанское генерал-губернаторство в период своей деятельности на востоке - Кульджинский (Илийский) султанат, Йеттишахарский эмират, Империя Син, Китайская Республика, на юге - Афганистан Эмират на юго-западе Ирана (Персидское царство) находился на границе. Генерал-губернаторство всегда находилось в военном и политическом соперничестве с этими странами за различные районы Средней Азии и уделяло серьезное внимание охране своих границ. В ходе конфликта интересов метрополия опиралась на войска Туркестанского военного округа и пыталась действовать, исходя из своего превосходства. В статье рассматривается участие Туркестанского военного округа в военно-политических процессах в Илийском регионе.

Ключевые слова: округ, взвод, рота, батальон, сотня, генерал, отделение, артиллерия, казак.

Ikhtiyor Bokhodirov,

Department of “Social Sciences” of Tashkent State University of Economics. The doctor of philosophy (PhD) on historical sciences.

THE ACTIVITIES OF THE TURKESTAN MILITARY DISTRICT AIMED AT ESTABLISHING THE RULE OF THE RUSSIAN EMPIRE IN THE ILI REGION

ABSTRACT

In the second half of the 19th century - the beginning of the 20th century, the Turkestan General Governorate bordered in the east - the Kulja (Ili) Sultanate, the Emirate of Yettishakhar, the Sin Empire, the Republic of China, in the south - the Emirate of Afghanistan, and in the southwest - Iran (Persian Kingdom). The General Governorate was always in military and political competition with these countries for various regions of Central Asia and paid serious attention to the protection of its borders. During the conflict of interests, the metropolis relied on the troops of the Turkestan Military District and tried to act on the basis of its superiority. The article describes the participation of the Turkestan Military District in military-political processes in the Ili region.

Index Terms: district, platoon, company, battalion, hundred, general, squad, artillery, cossack.

1. Dolzarbligi:

So‘nggi yillarda dunyodagi qator yetakchi ilmiy tadqiqot markazlarida XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistonda olib borilgan harbiy harakatlar, o‘lka hududining istilochilar tomonidan bosib olinib, mustamlaka tizimining o‘rnatilishi va uning mustahkamlanishi, shu jumladan, Rossiya imperiyasi qurolli kuchlarining Turkistondagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, O‘rta Osiyoda Xitoy, Afg‘oniston, Eron, Buyuk Britaniya va Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi harbiy-siyosiy raqobat, ularning mohiyati va oqibatlari kabi masalalar o‘rganilmoqda. Bu borada Turkiston o‘lkasida mustamlakachilik tizimining o‘rnatilishi, uni mustahkamlash va milliy ozodlik harakatlarini bostirishda asosiy ishtirokchilardan bo‘lgan Turkiston harbiy okrugi tarixini o‘rganish tobora dolzarblik kasb etmoqda. Zero, Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistonda harbiy okrug tizimi joriy etilib, muntazam armiyaning tashkil qilinishi, ularning o‘lkaning harbiy va ijtimoiy-siyosiy tarixida tutgan roli alohida obyekt sifatida o‘rganilmagan.

2. Metodlar va o‘rganilganlik darajasi:

Tadqiq etilayotgan davr tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan adabiyotlarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish maqsadga muvofiqdir: 1) Rossiya imperiyasi davrida chop etilgan manba va adabiyotlar; 2) sovet davrida nashr etilgan adabiyotlar, risola va maqolalar; 3) mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar; 4) xorijiy adabiyotlar.

Rossiya imperiyasi hukmronligi yillari va sovet davrida yaratilgan asarlarda Turkiston harbiy okrugi tarixiga doir masalalar bir tomonlama mavjud tuzum manfaatlari nuqtai nazaridan talqin qilingan. Mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlarda ham harbiy okrug faoliyati, uning Turkiston o‘lkasida mustamlakachilik tizimini mustahkamlashdagi roli va chegaradosh mamlakatlar bilan munosabatlarda imperiya manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan faoliyati yetarli darajada yoritilmadi. Shuning uchun ham mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotni amalga oshirish dolzarb hamda ilmiy-amaliy ahamiyatga molikdir.

Tadqiqot ishini olib borishda muammoviy, miqdoriy va qiyosiy-tarixiy tahlil, tarixiy-xronologik, tizimlilik kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

3. Tadqiqot natijalari:

Turkiston harbiy okrugi sharqida XIX asr 60-70-yillarda Kulja sultonligi va Yettishahar davlatlari mavjud edi. 1864-1866-yillarda Ili o‘lkasida Sin imperiyasiga qarshi qo‘zg‘olon

ko'targan taranchilar (Ili uyg'urlari) va dunganlar mustaqil Kulja sultonligiga (1864-1871) asos soladilar. Sultonlik Turkistondagi rus qo'shinlarini o'z mustaqilligiga tahdid deb hisoblagan. Sulton Alaxon Abul o'g'li (1867-1871) Yettisuvdagi qirg'iz-qipchoq va qozoq isyonchilariga homiylik qilib, ularni qo'llab quvvatlagan va Turkistondagi chegara postlariga hujumlar uyushtirgan.

Ili sultonligi bilan chegaralarni mustahkamlash uchun harbiy okrug tomonidan Yettisuv viloyatida Jarkent, Lepsinsk uyezdlarida 1868-1869 yillarda Baxti, Kaptag'ay va Baroxudzir chegara istehkomlari qurilib, Janubiy Tarbag'atay chegara otryadi tashkil etiladi. Baxti istehkomi 1 ta rota, 1 ta kazaklar yuzligi va 2 ta zambarak, Kaptag'ay esa 2 ta zambarak, 1 ta yuzlik tomonidan qo'riqlangan[1]. Boroxudzir istehkomiga 1868-1869-yillarda 12-Turkiston liniya batalyonining 3-rotasi (167 kishi), 4-rotasi (117 kishi), 1-Sibir otliq-tog' artilleriya batareyasi vzvodi (43 kishi), 2-Sibir polki kazaklari (74 kishi) joylashtirilgan[2]. 1868-yil sentabrda Tarbag'atay otryadi tarkibida 3-G'arbiy Sibir liniya batalyoni 4-rotasi (187 kishi), 12-Turkiston liniya bataloni 2-rotasi (128 kishi), 2-Sibir otliq-tog' artilleriya batareyasi 2-vzvodi (36 kishi) va 1 ta Sibir kazak yuzligi (118 kishi) mavjud edi[3]. Bu harbiy qismlar chegara hududlardagi aholini himoya qilish, chegara atrofidagi qirg'iz va qozoqlarni Kulja va Xitoyga ko'chib ketishini oldini olish, Xitoyga qatnovchi savdo karvonlarini qo'riqlashga mas'ul bo'lgan.

1871-yil sultonlik bilan qarama-qarshilikka yakun yasash, Yettisuv aholisini Ili o'lkasiga ko'chib ketishlarini to'xtatish, Xitoyning g'arbiy qismi bilan foydali savdo aloqalarini tiklash, Kuljani Angliya bilan yaqinlashishga moyilligi kuchli Yoqubbek tomonidan egallanishini oldini olish maqsadida Turkiston harbiy okrugi tomonidan Kulja sultonligiga qarshi harbiy eskpeditiya tashkil etiladi.

1871-yil 6-mayda imperiya Bosh shtabi 10-sonli buyruq orqali Kaufmanga Ili o'lkasiga qo'shin kiritishiga ruxsat beradi[4]. May oyida umumiy hujumga tayyorgarlik ko'rish va sultonlik qo'shinlari qudratini sinash uchun Kulja chegaralariga kichik hujumlar amalga oshiriladi. 6-7 mayda Boroxudzirdagi 1 ta rota, 90 ta kazak va 2 ta to'pdan iborat mayor Balitskiy otryadi chegaradagi Mozor qa'lasini egallab vayron qiladi[5]. 8-mayda podpolkovnik Yelinskiy 1 ta rota, 1.5 ta yuzlik va 2 ta to'p bilan Jarkent uyezdidagi Ketmen dovonida 3000 kishilik taranchilar hujumini qaytaradi. Otryad tarkibida 3 kishi halok bo'lib, 8 kishi yarador bo'ladi[6]. Taranchilar 200 kishini yo'qotadi[7]. Polkovnik Mixaylovskiy (10-batalyon o'qchi rotasi, 12-batalyon 3-rotasi, 1 ta Sibir, 0.5 Yettisuv kazaklar yuzligi, artilleriya vzvodi) va podpolkovnik Yelinskiy (10-batalyon 1 ta rotasi, 1 ta yuzlik[8]) otryadlari 26-31 may kunlari Ketmen dovonidagi janglarda qatnashadi. Ketmenda okrug qo'shinlaridan 35 kishi jarohatlanadi, sultonlik esa 500 askarini yo'qotadi[9]. 6-iyunda Mixaylovskiy taranchilarning ko'p sonlik ustunligi ostida o'z otryadini Boroxudzirga olib ketadi. Dovonda Yelinskiy 2 ta rota, 2 ta to'p va kazaklar yuzligi bilan mudofaada qoldiriladi[10].

12-iyunda Yettisuv viloyati gubernatori general-mayor Kolpakovskiy (1867-1882) qo'mondonligida 10 ta to'p bilan qurollangan 10,11,12-Turkiston liniya batalyonlaridan 6.5 ta piyodalar rotasi, 4.5 ta Sibir va Yettisuv kazaklar yuzligi Boroxudzir, Ketmen va Muzart dovonlari orqali Ili o'lkasiga bostirib kiradilar. Kolpakovskiy otryadi tarkibi 1 ta general, 63 ta ofitser, 1785 ta oddiy askarlardan iborat edi[11]. 18-iyunda Abdurahmon xazinachi qo'mondonligidagi 5000 kishilik taranchilar mag'lub etilib Chin-cha-xodzi qal'asi[12], 19-iyunda jangsiz Suydun qal'asi egallanadi. Chin-cha-xodzini egallashda 1 ta askar halok bo'lib, 2 ta ober-ofitser (baron Kaulbars) va 17 ta oddiy askar yarador bo'ladi[13]. 21-iyunda Sulton Alaxon Bayanday qishlog'ida Kolpakovskiyga taslim bo'ladi[14]. 22-iyunda okrug askarlari Kulja shahriga kiradi. Sulton esa Verniyga olib ketiladi.

Kulja sultonligi tugatilib Ili o'lkasi aholisiga 50 000 rubl kontributsiya solinadi[15]. Sultonlik o'rnida Yettisuv viloyati tarkibida Ili bo'limi tuziladi. Ili bo'limi mayor Balitskiy, yasovul Gerasimov, shtab kapitani Shneyder va podporuchik Leyashevskiy rahbarligidagi 4 ta harbiy uchastkaga ajratiladi[16]. Ili o'lkasida Rossiya hukumronligini taminlash, yerli xalqni nazoratda saqlash uchun Kulja shahri va Suydun qal'asiga 1,10-Turkiston liniya batalyonlaridan 7 ta rota, 4 yuzlik va 6 ta zambarak joylashtiriladi[17]. Ikki oyga yaqin davom etgan Kuljaga qarshi harbiy harakatlarda okrugning talofatlari 96 tani tashkil qiladi: 12 ta harbiy o'lib, 82 tasi yaralanadi, 2 kishi

bedarak ketadi[18]. Qarama-qarshi tarafdian esa Ili o'lkasidagi janglar vaqtida 4000 dan ortiq sultonlik aholisi qurbon bo'ladi[19].

Xulosa qilib aytganda, Turkiston harbiy okrugi O'rta Osiyodagi geosiyosiy raqobatda metropoliyaning asosiy quroli bo'lgan. Zero, Rossiya imperiyasi xalqaro munosabatlarda okrug qo'shinlarini turli mamlakatlarning Turkiston o'lkasining ayrim joylariga bo'lgan hududiy davolarini tiyib turish vositasi deb hisoblagan. O'lka ma'muriyati ham qo'shni davlatlar bilan yuzaga kelgan har qanday nizo va mojaralarda okrug qurolli kuchlarga tayangan holda tashqi siyosat olib borgan.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Костенко Л.Ф. Туркестанский край. Т. 3. – С.-Петербург: Общественная польза, 1880. – С. 223. (Kostenko L.F. Turkestan region. The 3rd part. – S.Peterburg, 1880. – P. 223.)
2. O'zMA, 1396-fond, 2-ro'uxat, 7-yig'ma jild, 84-bet. (National archive of Uzbekistan, folder 1396, list 2, work 7, page 84.)
3. O'zMA, 1396-fond, 2-ro'uxat, 7-yig'ma jild, 75-bet. (National archive of Uzbekistan, folder 1396, list 2, work 7, page 75.)
4. O'zMA, 1396-fond, 2-ro'uxat, 64-yig'ma jild, 17-bet. (National archive of Uzbekistan, folder 1396, list 2, work 64, page 17.)
5. O'zMA, 1396-fond, 2-ro'uxat, 70-yig'ma jild, 66-bet. (National archive of Uzbekistan, folder 1396, list 2, work 70, page 66.)
6. Хронологический указатель военных действий русской армии и флота (1855-1894 гг.). Том IV. – С.-Петербург: Военного типография, 1911. – С. 91. (Chronological index of military actions of the Russian army and navy (1855-1894). The 4th part. – S.Peterburg, 1911. – P. 91.)
7. Макшеев А.И. Исторический обзор Туркестана и наступательного движения в него русских. – Петербург: Военная типография, 1890. – С. 283. (Maksheev A.I. Historical review of Turkestan and the offensive movement of the Russians into it. – S.Peterburg, 1890. – P. 283.)
8. O'zMA, 1396-fond, 2-ro'uxat, 70-yig'ma jild, 68-69-betlar. (National archive of Uzbekistan, folder 1396, list 2, work 70, pages 68-69.)
9. O'zMA, 1396-fond, 2-ro'uxat, 70-yig'ma jild, 51,72-betlar. (National archive of Uzbekistan, folder 1396, list 2, work 70, pages 51,72.)
10. Макшеев А.И. Исторический обзор Туркестана и наступательного движения в него русских. – Петербург: Военная типография, 1890. – С. 284. (Maksheev A.I. Historical review of Turkestan and the offensive movement of the Russians into it. – S.Peterburg, 1890. – P. 284.)
11. Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии. Том II. – Петербург, 1906. – С. 40. (Terentev M.A. History of the conquest of Central Asia. The 2nd part. – S.Peterburg, 1906. – P. 40.)
12. Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии. Том II. – Петербург, 1906. – С. 47. (Terentev M.A. History of the conquest of Central Asia. The 2nd part. – S.Peterburg, 1906. – P. 47.)
13. Charles Marvin. Merv, The Queen of the World. – London: W.H. Allen & Co, 1881. – P. 403.
14. O'zMA, 1396-fond, 2-ro'uxat, 70-yig'ma jild, 92-93 betlar. (National archive of Uzbekistan, folder 1396, list 2, work 70, pages 92-93.)
15. O'zMA, 1396-fond, 2-ro'uxat, 70-yig'ma jild, 98-bet. (National archive of Uzbekistan, folder 1396, list 2, work 70, page 98.)
16. Urakov D.J. Turkiston general-gubernatorligining qo'shni davlatlar bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalari. – Toshkent: LESSON PRESS, 2021. – B. 56. (Uraikov D.J. Political and

economic relations of the Turkestan Governorate with neighboring countries. – Tashkent, 2021. – P. 56.)

17. Костенко Л.Ф. Туркестанский край. Т. 3. – С.-Петербург: Общественная польза, 1880. – С. 226. (Kostenko L.F. Turkestan region. The 3rd part. – S.Pheterburg, 1880. – P. 226.)

18. Терентьевъ М.А. История завоевания Средней Азии. Томъ II. – Петербургъ, 1906. – С. 52. (Terentev M.A. History of the conquest of Central Asia. The 2nd part. – S.Pheterburg, 1906. – P. 52.)

19. Aminat Chokobaeva. Frontiers of violence: state and conflict in Semirechye. – Canberra, 2016. – P. 26.

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 4 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 4

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 4

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000